

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI

“MOLIYA” KAFEDRASI

KURS ISHI

**Mavzu: Iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish sharoitida fond bozorini
takomillashtirish yo'llari**

**Bajardi: MM-70 L. Safarov
Tekshirdi: k.o'q. R.Toshmatova**

TOSHKENT-2014

KIRISH

1. Iqtisodiyotda fond bozorining roli va ahamiyati
2. O'zbekiston fond bozorining rivojlanish bosqichlari
3. Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning amaldagi holati tahlili
4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish sharoitida fond bozorini takomillashtirish yo'llari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

Hozirgi paytda fond bozorimizning qonuniy - me'yoriy bazasi va muayyan infratuzilmasi yaratilgan. Qimmatli qog'ozlar bozori moliya bozorining qimmatli qog'ozlar emissiyasi va muomalasi amalga oshiriladigan qismi bo'lib, u orqali moliyaviy resurslar ortiqcha sohalardan tanqis soxalarga yo'naltiriladi. Bugungi kunda qimmatli qog'ozlar bozori mustahkam infratuzilma asosida rivojlanib kelmoqda. Respublikamiz viloyatlarida filial va bo'limlarida, tarmoqlarda rivojlangan texnologiya asosida jixozlangan fond birjalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Sarmoyalarning foydali tarmoqlar va ishlab chiqarishga samarali o'tish albatta yaxshi tashkil etilgan fond bozoriga bog'liq. Ularning tuzilishi respublika xududlarida qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasini kengaytirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu xususda Prezidentimiz I. A. Karimov o'z ma'ruzalarida "Shuni tan olish kerakki, so'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan muammolar asosan qo'shimcha pul bosib chiqarish va moliya bozorini shunday pullar bilan to'ldirish hisobidan hal etilishi ko'zga tashlanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, kelgusida jilovlab bo'lmaydigan inflyatsiyaga, ya'ni qimmatchilikka, zaxira va milliy valyutalarning qadrsizlanishiga va shu bilan bog'liq og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin"¹, degan fikrni bildirgan edi. Qimmatli qog'ozlar bozori mamlakatda endigina shakllanayotgan soxa xisoblanadi, shu bilan birga iqtisodiyotning muhim elementlaridan biridir, chunki uning yordamida bir kancha iqtisodiy va moliyaviy masalalar hal bo'ladi.

Tashkillashtirilgan qimmatli qog'ozlar bozori kapital bozorni rivojlanish ko'rsatkichi bo'libgina kolmay, balki moliyaviy iqtisodiy tizimni baholash indikatori hamdir. Bundan tashqari kapitallash yuqori bosqichining likvidliligini, ikqilamchi bozorni asosiy faktorlaridan biri bu to'g'ri sarmoyalarni iqtisodiyotga, shuningdek chet el sarmoyalarini xam jalb

¹ Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. – T.: O'zbekiston. 2012. – 36 b.

qilishdir. Odatda, bozorning investitsiyalarni jalb qila olish qobiliyatiga bahoni birinchi navbatda portfel investorlar, ya'ni riskka moyil bo'lgan va yuqori daromadga intiluvchi chayqovchilar beradi. Shu bilan bir vaqtda aktivlarning (qimmatli qog'ozlarning) har bir oborotidan ma'lum bir foiz olib yuqori daromadga ega bo'lish uchun ular aktivlar aylanmasining yuqori tezlikda bo'lishini taminlashi kerak. O'z navbatida, muntazam savdo qimmatli qog'ozlar kotirovkasi mexanizmini shakllantiradi. Bu esa strategik investorlar har qanday vakdda egalik qilayotgan kapitalning xakikiy bahosini aniklash imkoniyatini beradi va zarur bo'lgan holatda qimmatli qog'ozlarning tez sotilish sharoitini yaratadi, ya'ni qimmatli qog'ozlarning likvidliligi va jalb qila olish kobiliyatini oshiradi.

Bunda O'zbekiston fond bozorlariga xam bilvosita baho berilib, ularga bozorning qo'lay kon'yukturasida qimmatli qog'ozlarni kushimcha muomalaga chiqarish va kapitallar bozoridan mablarlarni jalb qilish imkoniyatini beradi.

1. Iqtisodiyotda fond bozorining roli va ahamiyati

Fond birjasi - qimmatli qog'ozlarning aloxida tarzda uyushgan bozoridir. U uzoq rivojlanish tarixiga ega. Turt yuzdan ortik yil mobaynida qimmatli qog'ozlar bilan birja savdosini tashkil etish shakli xam, birja o'zining jamiyatning iqtisodiy va siyosiy iqtisodiyotdagi roli ham o'zgardi.

Birjalarning o'tmishdoshlari ko'rgazma savdolari yarmarkalar edi, ular o'zining rivojlanishi jarayonida doimiy ravishda savdo mexanizmlarini takomillashtirib bordi. XV asrda Venetsiya, Genuya, Florentsiya ko'rgazma savdolari katta nom chiqardi. Ular bilan birga tovar birjalari xam rivojlana boshladi. Feodalizmdan kapitalizmga o'tish davrida xo'jalik munosabatlarni bir-biri bilan boglovchi xamda karz mablag'larining taklifi va ularga bo'lgan talabni tartibga sola oladigan maxsus vositaga nisbatan kat'iy talab tugildi. Bunday vosita — birja shaklida - XVI asrda Ispaniya va Gollandiya o'rtasida savdo -

sotiqning rivojlanishi bilan shakllandi. Birja bevosita bozorga olib chiqmaydigan, xujjatlar bilan tasdiqlanadigan aniqsifat va mikdoriy xususiyatlarga xamda talab va taklif asosida rasman belgilanadigan narxlarga ega bo'lgan muayyan tavarlar bilan savdo qilish bo'yicha muntazam ravishda amal qiluvchi bozor sifatida yuzaga keldi. Birjada oddiy tovarlar bilan emas, balki faqat aloxida talablarga javob beradigan tovarlar bilan savdo -sotiqqlar amalga oshiriladi, chunonchi tovarlar sifat jixatdan bir xil bo'lishi, miqdoriga ko'ra soni, xajmi yoki ogirligi bilan belgilangan bo'lishi, ushbu turkumdan istalgan boshqa tovar bilan almashtirilishi mumkin bo'lishi lozim edi. 1531 yilda Antverpen, 1566 yilda London va 1608 yilda Amsterdam tovar birjalari tashkil qilindi. Tovar birjalarining o'sishi ularning safidan aloxida birjalarning ajralib chiqishiga olib keldi. Ularda faqat o'ziga xos xususiyatli tovar - qimmatli qog'ozlar bilan savdo - sotik qilindi. Dastlab bunday birjalar tovar birjalarning yordamchi bo'limlari shaklida faoliyat ko'rsatdi. Birok valyuta ayirboshlash operatsiyalarining kengayishi, muomalada tijorat vaksellarining paydo bo'lishi qimmatli qog'ozlar bilan savdo -sotik qilishga ixtisoslashtirilgan muassasa — fond birjalarining tashkil etilishiga zaminlar yaratdi. Birinchi fond birjasining paydo bo'lishini tarixchi olimlar 1592 yildan, ya'ni Antverpenda birjaga tavdim etilgan qimmatli qog'ozlar narxlarining ro'yxati e'lon qilingan vaqtdan xisoblashadi. XVI -XVII asarlarning oxirida birjalarda yangi tovar - davlat qimmatli qog'ozlari, Angliyada Ost - Ind va Gollandiyada Vest -Ind kompaniyalarining vujudga kelishi bilan esa, dastlabki aktsiyalar paydo bo'ldi.

1792 yilda Amerika Shtatlarida jahondagi barcha birjalarning eng yirigi — Nyu - York fond birjasi tashkil etildi. Uning ketidan Evropaning kator boshqa birjalari barpo qilindi. Iqtisodchilarning xisoblashicha, fond birjalari rivojlanishining dastlabki bosqichi 200 yil davom etdi. U vaqtda birjalar eng rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyotida katta rol uynadi. Birja operatsiyalari, o'z navbatida xalqaro savdo ~ sotikning kengayishiga, kapitalning dastlabki jamgarilishini tezlashtirishga va bu bilan ishlab chiqarishning feodal usulidan rivojlangan bozor jamiyatiga o'tishga kumaklashdi.

Biroq XIX asrning birinchi yarmida fond birjasi xo'jalik yuritishning kapitalistik tizimida baribir ikkinchi darajali unso'r hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlarning asosiy qismini Usha Davrda davlat obligatsiyalari tashkil etdi. Evropa mamlakatlarida aktsiyadorlik banklari rivoj topdi. Temir yo'l qurilishi endigina boshlanib, mulkchilikning aktsiyadorlik shakli dastlabki qadamlarini qo'ya boshlagan edi. Sanoatda yakka va oilaviy korxonalar ustunlikka ega bo'ldi. Yirik sanoatning o'sishi, sanoat millionerlari sinfining paydo bo'lishi, savdo - sotiq transportning va birinchi galda temir yo'lining jadal rivojlanishiga karab vaziyat o'zgardi. Aloxida kapitalistning jamg'armalari fakat uning shaxsiy korxonasini kengaytirishda to'liqqo'llanilmadi. Bu aktsiyadorlarning sarmoyasining o'sishiga kuchli turtki bo'ldi, Shu bilan bir vaqtda, barpo etilgan kompaniyalarning aktsiyalari borgan sayin real kapitalga quyish uchun emas, balki tezda oshirilgan ko'rs bo'yicha kayta sotish maqsadida harid qilinadi. Birja savdolari bir necha marta vaxima va tangliklar tufayli o'zilib qoldi. Bularning sabablari turlicha edi. Qimmatli qog'ozlar, odatda, real kapital bilan bog'liq bo'lib, birja narxlari talab va taklifning ta'siri ostida shakllannadi. Umumiy iqtisodiy vaziyat, siyosiy voqealar, shuningdeqmatbuot va qimmatli qog'ozlar bilan savdolarida ishtirok etuvchilarning ruxiy holatiga ta'sir etishning boshqa usullaridan keng foydalana boshlagan birja dagi olib sotarlarning rakrbat ko'rashlari ularga katta ta'sir ko'rsatdi. Tarixda aktsiyadorlik jamiyatlaridagi ishlarning ahvoli haqidagi ma'lumotlarning soxtalashitirilganligiga misollar juda ko'p. Ularning okibatida asossan kichiqaktsiyadorlar aziyat chekishdi. Birja operatsiyalari axdmiyatli tartibga solinmadi. Kichiqsarmoyadorlar xukuklarini ximoya qilish idorasi deyarli mavjud emas edi. Shuning uchun XIX asr fond birjasini ba'zan «yovvoyi» birja deb atashadi.

XIX asrning oxiri va XX asr boshida ishlab chiqarishning jadal o'sishi hamda bozorning jonlanishi yuz berdi. Ayniksa, birinchi jaxrn o'rushidan keyingi davrda sanoat xamda savdo -sotiq jadal rivojlana boshladi. Kqimmatli koshzlarni muomalaga chiqarish va ular bilan savdo - sotiq kdelishning keskin oshishi ushbu jarayonlarni aks ettiradi. Birja savdosiga, shu jumladan, kreditdan

foydalangan holda savdo qilish uchun, unlab million o'rta va kichiqxususiy sarmoyadorlar jalb etildi. Birja lar aylanmalari dastlabki uttiz yilda keskin usdi, birinchi jaxrn o'rushi yillari bundan mustasno. Aynan usha davrda fond birjalari bozor itstisodiyotining mudim muassasalari bir kdtorda o'z o'rnini egalladi.

1929 yil oktyabrda Nyu - York fond birjasining inkirozga uchrashi 1929 - 1933 yillardagi jahon iqtisodiy tangligining boshlanishiga sabab bo'ldi. Qimmatli qog'ozlarga o'z pullarini sarflagan kishilarning ko'pchiligi bankrot bo'ldi. AKD1 va jahonning k.ator boshqd badaavlat korxonalarining iqtisodiyoti fojia yokasiga kelib qoldi. 30 - yillardan boshlab AQShda, keyinchalik boshqd mamlakatlarda ham k.immatli qog'ozlar bozorini, xususan fond birjasining faoliyatini tartibga solishga yunaltirilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Birja ishtirokchilarining faoliyati ustidan davlat nazorati o'rnatildi va birjada o'z aktsiyalarini sotgan emitentlarni teshirishning qat'iy tadbiri ishlab chiqildi. Bunday xarakatlardan maqsad birjani ommaviy olib-sotarlikdan asrash, sarmoyadorlar huquqva manfaatlarini ximoya qilishdir.

XX asrning sungi 50 yilda katta o'zgarishlar yuz berdi. Ushbu davrda fond birjasining operatsiyalari ob'ekti va turi, texnik tashkiliy daraja, faoliyat jutrofiyasi kabi ko'pgina asosiy tarkibiy ko'rsatkichlari o'zgardi. Janubiy - Sharqiy Osiyo mamlakatlarda birja savdolarining kator yangi yirik markazlari paydo bo'ldi. Turli malakatlar birja tizimlarining baynalminallashuvi kuchaydi, jahonning turli fond birjalari o'rtasidagi kuchlar nisbatida siljishlar yuz berdi.

Fond birjalari real kapitalning rivojlanishini aks ettirgan holda ularning o'sishiga ko'p jihatdan yordam beradi.

Birjalar faoliyati qimmatli qog'ozlarni sarmoyadolrlarning keng katlami ichida tarkatilishini rag'batlantiradi, bu esa jamiyatni katta kismining moddiy axvoli yaxshilanishiga kumaklashadi. Birjalar sarmoyalarning bir tarmovdan boshqasiga okib kirishini, ularning eng istiqbolli sohalarga tuplanishini taminlaydi. Bundan tashkdri, ular turli korxonalar, xo'jalik tarmoqlari va soxdlarini bozor nuktai nazaridan kieslashga yordam beradi.

Fond birjasi o'z faoliyatida qonun hujjatlariga, birja ustaviga hamda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan birja savdolari qoidalariga amal qiladi.

Fond birjasi qonunchilikka muvofiq ro'yxatdan o'tkaziladi va u qimmatli qog'ozlarga doir birja faoliyati yuritish uchun Davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organidan litsenziya oladi. Birja faoliyati yuritish uchun litsenziya olmagan tashkilot bunday faoliyat yuritishga haqli emas. Qonun hujjatlariga muvofiq fond birjalariga qo'yilgan talablarga javob beradigan boshqa birjalar qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining yozma xulosasi asosida o'zining tuzilmasida fond bo'limlarini tuzishga haqli.

Boshqa birjalarda fond bo'limlarini tuzishga va faoliyatiga qo'yiladigan talablar qonunchilikda belgilanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat olib borish huquqini beruvchi ruxsatnoma (litsenziyasi) bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar fond birjasi muassislari bo'lishlari mumkin.

Fond birjalarining a'zolari birjada brokerlik joyini sotib olgan qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari bo'lishlari mumkin. Fond birjasi a'zolarining soni birjaning boshqaruv organlari tomonidan boshqariladi. Fond birjasining a'zolari davlat boshqaruv organlari, prokuratura va sud, ularning raxbar xodimlari yoki mutaxassisleri bo'lishi mumkin emas.

Fond birjasi a'zolarini savdolarga qo'yish faqatgina ularda qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat olib borish uchun tegishli litsenziyaga ega bo'lgandan keyin ruxsat etiladi. Boshqa birjaning a'zosi qimmatli qog'ozlar bozorida investitsion vositachi sifatida faoliyat olib borish uchun litsenziyaga ega bo'lsa fond bo'limlari tomonidan tashkil etilgan savdolarda ishtirok etish xuquqiga ega.

Qimmatli qog'ozlar bilan birja savdosini amalga oshirish qoidalarini birjaning oliy boshqaruv organi tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorini tartiblashtirish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan xolda

tasdiqlanadi.

Qoidalarda quyidagilar nazarda tutilmog'i lozim:

- mazkur birjada qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi printsiplari;
- birja oldi-sotdisi qatnashchilarning tarkibi hamda ularga qo'yiladigan talablar majmui;
- birja savdolarining joyi va vaqti to'g'risida ma'lumot;
- qimmatli qog'ozlarni birja oldi-sotdisiga chiqarish tartibi;
- birja bitimlarining tavsifi;
- mijozlar brokerlarga beradigan topshiriq (buyruq) turlari;
- tuzilgan bitimlar bo'yicha tekshiruv va xisob kitob tartibi;
- oldi-sotdini tashkil etish;
- bitimlarni ro'yxatdan o'tkazish va rasmiylashtirish tartibi;
- qimmatli qog'ozlar muomalasini amalga oshirishda foydalaniladigan shartnoma, hisobot, buyurtma va xabarnomalar hamda birjaga oid boshqa hujjatlar namunalari.

Fond birjalari va boshqa birjalarning fond bo'limlari nizom, qimmatli qog'ozlar savdosi bo'yicha ichki qoidalar, qimmatli qog'ozlar bozorini tartiblashtirish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan ustav (fond bo'limining nizomi) asosida xarakat qiladi.

Fond birjasi quyidagi xuquqlarga ega:

- birja a'zoliciga kirish uchun zarur bo'lgan qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilariga qo'yilgan minimal majburiy talablarni belgilash;
- birja savdolarida a'zolar vakillariga qo'yilgan kvalifikatsion talablarni belgilash;
- birja a'zolarining majlislarini chaqirish va tashkillashtirish;
- ekspert, kvalifikatsion, listing, nazorat, arbitraj komissiyalari, maslaxat va ma'lumot byurolarini va ularning ishlari uchun zarur bo'lgan boshqa muassasalarni ta'sis etish;
- o'z ustaviga muvofiq birja a'zolari to'laydigan kirish va joriy badallarni belgilab, undirib olish bitimlarni ro'yxatga olganlik texnik xizmat ko'rsatganlik

uchun, doimiy va bir galgi mijozlardan birjada bo'lganlik uchun haq belgilab, undirib olish, shuningdek birja ustavini, birja yig'ilishlari qoidalarini buzganlik, ro'yxatdan o'tkazish yig'imini vaqtida to'lamaganlik uchun jarima va penyalar undirib olish;

- birja buketlari, ma'lumotnomalari, to'plamlarini chop etish;
- nazorat qiluvchi organlarning qonunga xilof xatti-harakatlari ustidan sud tartibida shikoyat qilishga haqlidir.

Fond birjasi faoliyatining moliyaviy ta'minoti:

- fond birjasi aktsiyalari va paylarini sotish;
- fond birjasidagi brokerlik o'rinlarini sotish;
- fond birjasi a'zolari muntazam to'lab boradigan a'zolik badallari;
- birja bitimlarini ro'yxatdan o'tkazishda olinadigan yig'imlar;
- birja ustavida nazarda tutilgan axborot xizmati va boshqa oid xizmatlar ko'rsatishdan keladigan daromadlar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Birja savdosini tashkillashtirish

Fond birjasida savdolar sessiyalar bilan o'tkaziladi. Bu degani, bir vaqtning o'zida birjada har hil turdagi qimmatli qog'ozlar bilan savdo o'tkazilmaydi. Masalan, banklar aktsiyalari uchun alohida sessiya belgilanadi, obligatsiyalar bo'yicha esa boshqa sessiya o'tkaziladi va h.k.

Savdo boshlanishiga odatda qimmatli qog'ozlar kurslari ma'lum bo'lib, ularning strat kursini kotirovka komissiyasi e'lon qiladi. Keyin esa savdo boshlanadi. Savdo turli usullarda o'tkazilishi mumkin, masalan:

- guruhli, ya'ni kun davomida sotish va sotib olish uchun talablar jamlanib, bir kunda bir yoki ikki marotaba birja savdosiga qo'yiladi;
- uzluksiz, ya'ni sotish va sotib olishga bo'lgan talablar uzluksiz solishtirib boriladi, agar ular mos kelsa, unda savdo sessiyaning istalgan vaqtida sodir etilishi mumkin.

2. O'zbekiston fond bozorining rivojlanish bosqichlari

Qimmatli qog'ozlar bozori bozor iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblansa, fond birjasi esa bozor iqtisodiyotining zaruriy bo'g'ini hisoblanadi.

Toshkent Respublika fond birjasi – bu qimmatli qog'ozlar bozoriga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar (Markaziy depozitariya, Hisob-kliring palatasi, ikkinchi pog'onali depozitariyalar, brokerlik idoralari) bilan birgalikda qimmatli qog'ozlar bilan savdo jarayonlarini yanada takomillashtirib borish orqali fond bozorining barcha sub'ektlari uchun investitsiya manbalariga erkin kira olish imkoniyatini yaratib beruvchi tashkillashgan va doimiy faoliyat ko'rsatadigan qimmatli qog'ozlar bozoridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 21-yanvardagi «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq tashkil etilgan Toshkent Respublika fond birjasi bugungi kunda iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlarining asosiy shartlaridan biri bo'lgan qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanishida va uning rivojlanishida faol ishtirok etmoqda.

Zero, mazkur muassasa aktsiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlarini birlamchi joylashtirish va ularning ikkilamchi bozorda erkin muomalada bo'lishi hamda investorlarning qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdi jarayonlarini amalga oshirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib kelmoqda.

Birja savdolari orqali, xususiylashtirilgan korxonalar negizida tashkil etilgan aktsiyadorlik jamiyatlari ko'rinishidagi mamlakat iqtisodiyotining turli sohalari xaqiqiy mulkdorlarga, va shunga mutanosib ravishda keng ko'lamdagi tarkibiy o'zgartirish va modernizatsiyalash uchun yirik mablag'lar jalb qilinishiga, yangidan tashkil etilayotgan aktsiyadorlik jamiyatlari esa o'z

investitsiya loyihalarini amalga oshirishlari uchun qo'shimcha moliyaviy manbalarga ega bo'lmoqdalar.


Aktsiyadorlik jamiyatlari o'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish va ularni «Toshkent» Respublika fond birjasi savdolari orqali joylashtirish hisobiga, korxona rivojlanishi uchun ichki va tashqi kapital bozoridan cheklanmagan miqdorda investitsiya resurslarini jalb qilishlari mumkin.

Mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanishida Toshkent Respublika fond birjasi faoliyatini baholab ta'kidlash mumkinki, uning tashkil etilishi va savdo bitimlari zamonaviy texnologiyalar asosida amalga oshirilishi natijasida barcha investorlar uchun qimmatli qog'ozlar bozorida qulay va ochiq ishtirok etish imkoniyati paydo bo'ldi.

Iqtisodiy adabiyotda “fond bozori” va “qimmatli qog'ozlar bozori” degan atama mavjud. Biz bu atamalarga aniqlik kiritishga harakat qilamiz. Qimmatli qog'ozlar bozori fond bozoriga nisbatan keng ma'noga ega. Chunki qimmatli qog'ozlar bozori tarkibiga fond bozori(birja) va birjadan tashqari bozorni oladi.

Mamlakatlarning siyosiy tuzilmasi, iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi va faoliyat ko'rsatayotgan investitsiya institutlarining faoliyatdagi cheklovlarning mavjudligiyoki yo'qligi alohida olingan mamlakatlarda fond birjalarining qaysi mulkchilik asosida tashkil etilishiga va uni faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Biz quyidagi chizmada fond birjalarining huquqiy jihatdan tashkil etilishi turlarini ko'rishimiz mumkin:

Fond birjalarining turlari²

Yuqoridagi chizmadan ko'rinib turibdiki, xalqaro amaliyotda fond birjalarining turli mulkchilik shaklida tashkil etilishi mumkin.


Xalqaro amaliyotda xususiy fond birjalari aksionerlik jamiyatlari shaklida tashkil etiladi. Bu jamiyatlarni ng aksiyadorlari bo'lib xususiy kompaniyalar hisoblanadi. Bunday mulkchilik shaklidagi fond birjalari qimmatli qog'ozlar bilan birja savdolarini tashkil qilishda mustaqil hisoblanadilar. Birja savdolari mamlakatdagi mavjud qonunchilik asosida tashkil etiladi va olib boriladi. Amaldagi qonunchilikni buzganlik uchun ko'zda tutilgan huquqiy majburiyat asosida javobgarlikka tortiladi. Xususiy fond birjalari faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatlarda davlat organlari tomonidan o'z zimmlariga birja savdolari va savdo btimlari bo'yicha qaltisliklar bo'yicha hech qanday majburiyatlarni olmaydilar. Birjalarning bunday shakllari AQShdagi fond birjalari, ya'ni Nyu York fond birjasi(New York Stock Exchange) va Bubk Britaniyada London fond birjasi (London Stock Exchange) shakllangan va ular o'z faoliyatini olib bormoqdalar.

Birja bozorida shu mamlakatning fond birjalarida qimmatli qog'ozlar bilan savdo sotiq kiradi. Birjadan tashqari bozorda esa fond birjasidan tashqarida olib boriladigan qimmatli qog'ozlar bilan savdo kiradi.

Biz bitiruv malkaviy ishi ishimizning quyidagi chizmasida qimmatli qog'ozlar bozorining tarkibini ko'ramiz.

² Tadqiqotni olib borish davomida turli ilmiy adabiyotlar asosida aks ettirildi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining tarkibiy tuzilmasi³



Yuqoridagi chizmadan ko'rinib turibdiki, fond(birja) bozoridan tashqari qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari bozori mavjud. Ushbu bozorda depozit sertifikatlari, veksellar, depozit jamg'arma sertifikatlari olib sotiladi. Biz bitiruv malkaviy ishi ishimiz Respublikamizdagi fond bozorini "Toshkent" Respublika fond birjasi rivojlanish bosqichi asosida yoritamiz.

Xalqaro amaliyotda ochiq huquqiy fond birjalari o'z faoliyatini davlat tashkiloti maqomida olib boradilar va ular doimiy ravishda davlatning vakolatli organlari tomonida nazorat etib boriladi.

Bunday birjalar faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatlarda davlatning vakolatli organlari qimmatli qog'ozlar bilan savdo sotiq qilish tartibini ishlab chiqishda ishtirok etadi, bu bu tartibning amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi., hamda nazorat qilib boradi., fond birjasi faoliyat ko'rsatish uchun birja maklerlarini tayinlaydi, ularni ishdan chetlaydi va boshqalar. Fond birjalarining bunday shakllari Germaniyadagi Frankfurt fond birjasi (Frankfurter Wertpapier bourse), Nemis muddatli shartnomalar birjasi (Deutsche termin borse) va Frantsiyadagi Parij fond birjasi (Paris Bourse) shakllangan va o'z faoliyatini olib bormoqdalar.

Aralash mulkchilikdagi fond birjalari aktsiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etiladi, lekin ustav kapitalining 50% dan kam bo'lmagan ulushi davlatga

³ Tadqiqotni olib borish davomida turli ilmiy adabiyotlar asosida aks ettirildi.

tegishli bo'ladi, qolgan qismi esa yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'ladi. Fond birjalarining bunday shakllari Shveytsariyadagi Tsyurix fond birjasi(Zuzich Stock Exchange), Italiyadagi Milan fond birjasi(Borsa Valori di Milano), Avstiriyadagi, Shveytsiyadagi fond birjalari shakllangan va ular o'z faoliyatini olib bormoqdalar. Fond birjalari iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o'tayotgan mustaqil davlatlarda ham alohida ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz fond bozori O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng 90 yillar boshlarida yuzaga chiqdi. Mamlakatimizda fond bozorini shakllantirish va uning faoliyatini tashkil etish uchun kerakli bo'lgan bilim va tajribalarning yo'qligi sababli davlat ishtirokchilarini fond bozorini rivojlantirishning xalqaro tajribasini chuqur o'rgangan holda va xo'jalik yuritishning yuzaga kelgan ichki o'ziga xos amaliyotning umumlashtirgan holda olib borishni talab etdi. Bunda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (Jahon banki), Uvropa tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, O'ttizlik guruxi(O'zlarining qimmatli qog'ozlar bozorlarini tashkil etishni boshlayotgan barcha mamlakatlarga yagona bo'lgan yondashuvlvr qva qoidalarni tavsiya etuvchi xalqaro tashkilot) kabi turli yirik xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari inobatga olindi.

Mazkur tavsiyalarning mamlakatlar o'zlarining fond bozorlari tizimini yaratishda yo'l qo'ygan xatolarini takrorlamaslik imkonini beradi. Ushbu tamoyilning bosqichma bosqich va izchil hayotga tatbiq etilishi sezilarli natijalarga erishish imkonini berdi.

Mamlakatimizda 1991 yilning bahor oylarida O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarori bilan mamlakatning eng yangi tarixida birinchi toshkent O'zbekiston Respublikasi tovar xom ashyo birjasi tashkil etildi. Shu yilning yoz oylarida birja savdolarining shiidad bilan o'sishi birja ustav sarmoyasining oshirilishi, uning ishtirokchilari tarkibini kengaytirilish zaruratini keltirib chiqardi.1991 yilning avgustida O'zbekiston tovar xom ashyo birjasi ma'suliyati cheklangan jamiyat Toshkent Respublika universal tovar fond birjasi(qisqartirilgan nomi Toshkent fond birjasi)ga aylantirildi va uning

tarkibida qimmatli qog'ozlar borining dastlabki tashkiloti fond bo'limi ochildi. Ushbu fond bo'limi zimmasiga qimmatli qog'ozlarning uyushgan Respublika bozorini tashkil etish (fond boyliklari bilan birja savdolarini tashkil qilish), birjaning ustav sarmoyasini shakllantirish maqsadida joylashtirish vazifalari yuklatildi.

1992 yilning yanvar oyida Toshkent birjasining Fond bo'limi O'zbekiston Respublikasida birinchi bo'lib qimmatli qog'ozlar bilan muntazam savdolari o'tkazishga kirishdi. 1992 yilda Toshkent birjasini fond bo'limining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha aylanmasi 26.0 mln rublni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich Rossiya federatsiyasining dongdor fond birjalarining xuddi shunday ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadigan darajada edi. Fond bozorining mamlakat miqyosida dastlabki yirik muassasa bo'lgan fond bo'limi nafaqat dastlabki emitentlar va sarmoyadoralarning balki O'zbekiston Respublikasining moliya vazirligining ham e'tiborini tortdi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi o'sha vaqt endigina fond bozoriga nisbatan munosabatlarni belgilay boshlab, uni tartibga solib turishga urinib ko'rdi.

O'zbekiston Respublikasi fond bozorining malakali ishtirokchilarini shakllantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirila boshladi. Bu olib olib borilgan maqsadli ishlar natijasida mamlakatimizda milliy fond bozorining malakali ishtirokchilari toifasi shakllantirildi va ular hozirda fond bozorida faoliyat ko'rsatib kelishmoqda.

O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bilan savdo savdo hajmlarining muntazam ravishda o'sib borishi natijasida mamlakatimizda 1993 yil 2 sentyabrda "Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning 17 moddasida ilk bor fond birjasi tushunchasiga ta'rif berildi. Unga asosan "Fond birjasi qimmatli qog'ozlar bilan bir maroifada muomalada bo'lishning zarur shart sharoitini ta'minlash, ularning bozor bahosini (qimmatli qog'ozlar talab va taklifi o'rtasidagi muvozanatni aks ettiruvchi narxlarini) belgilash va ularga doir ma'lumotlarni keragicha tarqatish, qimmatli qog'ozlar qatnashchilarining kasb mahoratini yuqori darajada saqlab

borish faoliyatining alohida soxasi bo'lgan tashkilotdir".

Fond birjasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, birja ustaviga hamda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq xizmatlarni amalga oshirishning ichki qoidalariga amal qiladi.

Mamlakatimizda ushbu qonunni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 8 aprelda "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulkchilikning himoya etishni ta'minlash va qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Ushbu qonunchilik hujjatlariga asosan uning negizida, uning nomini, avvalgi rasmiy belgisini bir o'rkachli tuya(matonatlilik va chidamlilik ramzi) fond birjalari faoliyati ko'rsatishining mumtoz tamoyillariga asoslangan operatsiyalarni amalga oshirish qoidalariga amal qilish an'analarini saqlab qolgan yopiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati shaklidagi "Toshkent" Respublika fond birjasi tashkil etildi.

O'z faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab "Toshkent" Respublika fond birjasi tarmoq dasturiy mahsulotlarni yaratishga ixtisoslashtirilgan tashkilotlarni jalb etish bilan birga savdolarining elektron birja tizimini barpo qilish, shuningdek, aktsiyalashtirish va aktsiyalarni xarid qilish tashviq qilish bo'yicha faol ishlarni boshlab yubordi.

Barcha fond birjalarida bo'lganligi kabi "Toshkent" Respublika fond birjasida ham birja savdolarida ishtirok etish uchun faqat O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beruvchi maxsus litsenziyaga bo'lgan birja a'zolariga ruxsut etildi. Faoliyatining dastlabki yilida "Toshkent" Respublika fond birjasi o'z qo'li ostiga 250 nafar a'zolarini birlashtirdi, ularning deyarli to'rtidan bir qismini xususiy shaslar tashkil etdi. Birja a'zoliciga kirish shartlari brokerlik joylarining sotib olinishi va muntazam a'zolik badallarining to'lanilishini nazarda tutdi.

Qimmatliqog'ozlar bilan savdo qilishning amaldagi tizimining tegishlicha ishlashini ta'minlaydi, uning faoliyat ko'rsatishini nazorat qiladi, takomillashuvi

ustida ish olib boradi. Birja savdo tizimlarining rivojlanishini birjani faoliyat ko'rsatishining boshlang'ich bosqichidan (u vaqtda savdolar bitta binoda "ovoz orqali" o'tkazildi (1994-1995 y.y.)), oraliq bosqichidan (unda savdolar "ovoz orqali", lekin se-lektor aloqasi orqali birjaning viloyatlardagi mintaqaviy bo'linmalarini qo'shish bilan (1995— 1996 y.y.)) boshlab va to hozirgi bosqichgacha (unda savdolarning elektron tizimi mavjud bo'lib, uning faoliyat ko'rsatishi zamonaviy asbob-uskuna va aloqa vositalari, shu jumladan, yo'ldosh aloqasi bilan jihozlangan yagona savdo majmuasini ta'minlaydi) kuzatish mumkin.

Hozirgi paytda "Toshkent" Respublika fond birjasi mamlakatimiz moliya tizimining tez rivojlanayotgan tuzilmalaridan biri bo'lib, sarmoya bozorining fond ulushi o'zgarishlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Shuni ta'kidlash lozimki, "Toshkent" Respublika fond birjasining faol pozitsiyasi sababli qisqa muddatda rivojlangan qimmatli qog'ozlar savdo tizimining tashkiliy texnik, huquqiy va iqtisodiy asoslari yaratildi. Hozirda birja O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida o'z filiallariga ega.

Xalqaro amaliyotda xorijiy mamlakatlarning yirik birjalari faoliyatini rivojlantirishda yagona xalqaro savdo tizimiga ulanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. "Toshkent" Respublika fond birjasida ham jahon qimmatli qog'ozlar bozoriga integratsiya yo'nalishida faoliyat amalga oshirilmoqda. 1995 yilda xalqaro tashkilotning qarorgoxi Istambul shahrida joylashgan Uvroosiyo federatsiyasiga (FEAS) qo'shildi. 1999 yilning sentyabr oyida Frankfurt fond birjasi bilan o'zaro hamkorlik va ma'lumotlar ayirboshlash yuzasidvn shartnoma imzolandi. 2004 yilning 23 iyulida "Toshkent" Respublika fond birjasi va london fond birjasi o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Bundan tashqari hozirgi vaqtda "Toshkent" Respublika fond birjasi va quvayt avtomatlashtirilgan savdo tizimi (Kuwait Automated Trading System) departamenti Bilan o'zaro hamkorlik qilish yuzasidan muzokaralar olib borildi.

Toshkent" Respublika fond birjasi ochiq aktsiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilganligi tufayli uni boshqarish organlarining tarkibi o'ziga xos

xususiyatga ega. Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi boshqaruvning oliy organi hisoblanadi, bu faqat investitsiya muassasalari bo'lishi mumkin. Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishlari oralig'idagi davrda birjani boshqarish bilan Kuzatuvchi kengash shug'ullanadi. Kengashning a'zolari Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan saylanadi. Birjaning joriy faoliyatini boshqarishni birja a'zolaridan tarkib topgan Boshqaruv amalga oshiradi, unga Rais boshchilik qiladi. Boshqaruv faoliyatini tekshiruvchi organ Taftish komissiyasi bo'lib, uning xulosalarisiz Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi Boshqaruvning yillik hisobotini tasdiqlash xuquqiga ega emas.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda fond bozorining dvigateli hisoblangan m tashkil etilgan va o'z faoliyatini olib bormoqda. Biz "Toshkent" Respublika fond birjasining tuzilishi, faoliyati va savdo aylanmalarini tahlil etishga harakat qilamiz.

Mamlakatimizda fond birjasini shakllanishi va uni rivojlantirish bosqichlarini yoritib berishga harakat qilamiz.

3. Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning amaldagi holati tahlili

Davlat vakolatli organlarini qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish borasida urni bekiyos. Ularning funktsional vazifalariga xam yuqorida ko'rsatilgan maqsadlar yotadi. Masalan: Qimmatli qog'ozlar bozorini faoliyatini muvofiqlangirish va nazorat kilish markazi 1999 yilda Davlat mulk kumitasi va "Vaqt Milliy depozitariysi" bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining O'zbekiston Respublikasi Markaziy qimmatli qog'ozlar depozitariysini tuzishga doir tashkiliy chora-tadbirlar tug'risidagi karorini tayyorladi.

Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 25 sentyabrdagi 440-sonli karorini ijro etish borasida investitsion va xususiylapggirish investitsion fondlari

faoliyatitartibga soluvchi yangi me'yoriy xujjatlar ishlab chiqarib, amaldagilari mazkur kârorga muvofiq xolga keltirildi. quyidagi xujjat davlat mulk kumitasi tomonidan yangi taxrirda tasdiklandi va ular O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida ro'yxatdan o'tkazildi.

- “Xususiylashtirish investitsiya fondining na'munaviy ustavi”;
- “Investitsiya fondining na'munaviy ustavi”;
- “Investitsiya fondining boshqaruvchi kompaniya bilan fondlarni boshqarish tug'risidagi na'munaviy shartnomasi”;
- “Investitsiya fondining na'munaviy emissiya prospekti”;
- “Investitsiya fondining depozitariya bilan na'munaviy shartnomasi”;

Markaz tomonidan Davlat Mulk kumitasi va Moliya vazirligi bilan birgalikda “Tashkil etilgan birjadan tashqari bozorda aksiyalar bilan operatsiyalarni amalga oshirish tartibi” ishlab chikilib, mazkur xujjat qimmatli qog'ozlar bozorida firibgarliklar va bopgka tartib buzarlklarga chek kuydi.

Mamlakatimiz qimmatli qog'ozlar bozorida ulush va qarz munosabatlarini anglatuvchi aksiyalar va obligatsiyalar bozori alohida o'rin egallaydi. Quyida ushbu bozorlarning 2007-2013 yillardagi nisbat ko'rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida ulushli va qarz korporativ qimmatli qog'ozlar bozorlari nisbati dinamikasi⁴

№	Yillar	Aksiya bozori		Obligatsiya bozori	
		Hajmi (mlrd. so'm)	ulushi %da	Hajmi (mlrd. so'm)	ulushi %da
1	2007 yil	400,8	98,2	7,1	0,17
2	2008 yil	705,7	99,6	2,6	0,04
3	2009 yil	748,1	99,8	1,5	0,02
4	2010 yil	1477,3	87,9	203,8	12,1
5	2011 yil	1501	93,6	102,6	6,4

⁴ TMI va TDIU hamkorligida 29.05.2014da tashkil qilingan ilmiy seminarda ma'ruza qilgan prof. Butikovning taqdimot materiallaridan olindi

6	2012 yil	1987,4	94,9	106,1	5,1
7	2013 yil	910,4	93,1	67	6,9

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra qimmatli qog'ozlar bozorida aktsiya bozori asosiy qismni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni 2007 yilda aktsiya va obligatsiya bozorlarining 98,2 %ini ya'ni 400,8 mlrd. so'mni aktsiya bozori tashkil etsa, 0,17%ini ya'ni 7,1 mlrd. so'mni obligatsiya bozoritashkil etgan. 2013 yilga kelib obligatsiya bozorining nisbatan o'sganligini ko'rishimiz mumkin. 2013 yilda aktsiya va obligatsiya bozorlarining 93,1 %ini ya'ni 910,4 mlrd. so'mni aktsiya bozori tashkil etsa, 6,9%ini ya'ni 67 mlrd. so'mni obligatsiya bozoritashkil etgan.

Markaz tomonidan uchta me'yoriy xujjat ishlab chikilib, ular O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazildi:

- “Qimmatli qog'ozlar bozorida institutlarning investitsion litsenziyalash tug'risidagi Nizom”;
- “Jismoniy shaxslarni qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini amalga oshirish huquqi bo'yicha qayta attestatsiyadan o'tkazish tug'risidagi Nizom”;
- “Xususiylashtirish investitsiya fondlari aksiyalarini dastlabki tarkatishda aholiga sotish tartibi”.

Qimmatli qog'ozlar bozorining malakali qatnashchilari: moliyaviy brokerlar, dilerlar, investitsion maslahatchilar, investitsiya kompaniyalari, investitsiya fondlari, boshqaruvchi kompaniyalar, depozitariylar, hisob-kitob kliring palatalari, qimmatli qog'ozlar egalarining reestr saqllovchilari, qimmatli qog'ozlarni nominal saqllovchilar bilan birga respublika fond birjasi va boshqa investitsion institutlarning boshqa turlari qimmatli qog'ozlar bozorining infratuzulmasini tashkil etadi.

4. O'zbekiston Respublikasining halqaro sarmoya bozoriga integratsiyasi va infratuzulmasini tashkil etish.

Markazning 1998-2000 yillardagi faoliyatidagi eng asosiy yo'nalishlardan biri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 6.05.1999 yildagi 195-

F-sonli farmoyishi bilan tasdiklangan “O‘zbekiston fond bozorining halkaro sarmoya bozoriga integratsiyasi bo‘yicha bosqichma-bosqich xarakatlar rejasi”ni uz mudatida va sifatli amalga oshirish hisoblanadi.

Halkaro tashkilotlar va moliya institutlar bilan xamkorlikda xorijiy sarmoyalarni uzbek emitentlarining qimmatli qog‘ozlariga jalb etilishi ishlari olib boriladi.

Shuni qayd etish zarurki, xozirgi paytda respublika qimmatli qog‘ozlar bozori uchun birlamchi emissiya va aktsiyalarni birlamchi investorlar o‘rtasida joylashtirish xosdir.

O‘zbekistonda ikkilamchi fond bozori endi shakllanib kelmokda. Mamlakatimizda qimmatli qog‘ozlar bozori barcha rivojlanagtgan fond bozorlari kabi katta kiyinchiliklarga duch kelmokda. Ulardan birinchisi qimmatli qog‘ozlarning likvidligidir. Shuning uchun bozorning likvidligini oshirishni tashkil etishni takomillashtirish, birja va birjadan tashqari bozorlar tuzilmasini rivojlantirish, qimmatli qog‘ozlar muomalasi va ularning xarajatlarini kamaytirish, axborot olish imkoniyatlarini oshirish zarur. Hozirgi kunda qimmatli qog‘ozlarning birlamchi va ikkilamchi bozorlarida savdolar xajmi o‘ssish dinamikasi kuzatilmoqda.

Birinchi navbatda fond birjasi ishlarini Jaxon standartlari darajasiga kutarish, qimmatli qog‘ozlar listingi va kotirovkasi tartibini joriy etish, fond bozorini asosiy tuzilmalari: birjalari, depozitariylar va hisob-kitob kliring tashkilotlarining avtomatlashtirilgan aloka tizimlarini yaratish zarur.

Anderrayting va diler operatsiyalarini amalga oshiruvchi investitsion kompaniyalarni yaratish va ularni faoliyatini faollashtirishga aloxida axamiyat berish lozim.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida aktsiyalarning birlamchi va ikkilamchi bozori nisbati⁵

⁵ TMI va TDIU hamkorligida 29.05.2014da tashkil qilingan ilmiy seminarda ma’ruza qilgan prof.Butikovning taqdimot materiallaridan olindi

№	Yillar	Birlamchi bozori		Ikkilamchi bozori	
		hajmi (mlrd. so'm)	ulushi %da	hajmi (mlrd. so'm)	ulushi %da
1	2007 yil	268,9	67,1	131,9	32,9
2	2008 yil	483,4	68,5	222,3	31,5
3	2009 yil	560,4	74,9	187,7	25,1
4	2010 yil	930	63	547,3	37
5	2011 yil	634,8	42,3	866,2	57,7
6	2012 yil	1148,4	57,8	839	42,2
7	2013 yil	748,9	82,3	161,5	17,7

Yuqoridagi 2-jadvalda 2007-2013 yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasida aktsiyalarning birlamchi va ikkilamchi bozorlari nisbat ko'rsatkichlari keltirilgan. Ushbu jadval ma'lumotlariga ko'ra 2007 yilda jami aktsiyalarning 67,1%i, ya'ni 268,9 mlrd so'mi birlamchi bozorda sotilgan bo'lsa, 32,9%i, ya'ni 131,9 mlrd. so'mi ikkilamchi bozorda sotilganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu yillar davomida aktsiyalarning birlamchi va ikkilamchi bozorlardagi nisbati turlicha o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, 2013 yilda jami aktsiyalarning 82,3% i, ya'ni 748,9 mlrd. so'mi birlamchi bozorlarda, 17,7%i, ya'ni 161,5 mlrd. so'mi ikkilamchi bozorlarda sotilganligini ko'rishimiz mumkin.

Qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozori. qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozori deganda kimmatli kog'ozlarni dastlabki egalari (investorlarga), ya'ni yuridik va jismonii shaxslarga sotish maqsadida ularni birlamchi va ikkilamchi va emissiya qilish va muomalaga chiqarish tushiniladi. Bu bozor qimmatli qog'ozlarni joylashtirishni tashkil kiluvchi va ta'minlovchi bozordir.

Boshqacha aytganda, birlamchi bozor bu birlamchi va takror emissiya kilingan qimmatli qog'ozlarni ularni birinchi yoki dastlabki egalari (investorlarga) joylashtiruvchi bozordir. Bu bozorda qimmatli qog'ozlar birinchi namogn bo'ladi. Bu bozorda davlat va maxalliy xokimiyat obligatsiyalar, shuiingdek, turli aksioner jamiyatlarining aktsiyalari va obligatsiyalari emissiya

kilinadi. qimmatli qog'ozlarni birlamchi bozorga chiqarish va joylashtirish maqsadida quyidagi amallar bajariladi:

Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatishi, u va uni boshqarish bilan bog'lik munosabatlar ko'rsatilgan qonun va boshqa qonunlar xujjatlari bilan belgilanadi. Shu qonunlarga muvofiq qimmatli qog'ozlar bozori jismoniy va yuridik shaxslarning qimmatli qog'ozlar chiqarish, ularni muomalada bo'lishi va xakini to'lash bilan bog'lik munosabatlar tizimini shakllantiradi.

Qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilari qimmatli qog'ozlarning emitentlari, investorlar, investitsiya institutlari, shuningdek ularning birlashmalari (uyushmalari), fond birjalari (birjalarning fond bo'limlari), davlat tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorini boshqarish va muvofiqlashtirish vakolati berilgan organlar va boshqalardan iboratdir.

Qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya institutlarining quyidagi turlari faoliyat ko'rsatishi mumkin: investtsiya vositachisi (moliya brokeri va dileri); investitsiya maslahatchisi;

Investitsiya kompaniyasi; investitsiya fondi; boshqaruvchi kompaniya; depozitariy; hisob-kitob kliring palatasi (tashkiloti); qimmatli qog'ozlar egalarining reestrini saqlovchi; qimmatli qog'ozlarni nominal saqlovchi; investitsiya institutlarining boshqa turlari. Investitsiya institutlari tuzilishi mumkin, faqatgina ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilishi mumkin bo'lgan investitsiya fondi bundan mustasno.

Investitsiya institutlarini tuzish, ularni faoliyat ko'rsatishi va ularni tugatish tartibi Respublikamizni qonun xujjatlarida belgilab qo'yilgan.

Fond dukonlari investitsiya institutlarining tarkibiy bulinmalari bo'lib, jismoniy shaxslar uchun qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari mayda ulgurji va chakana savdosini amalga oshiradi.

Fond dukonlari investitsiya vositachilari, investitsiya kompaniyalari va boshqaruvchi kompaniyalari tomonidan ochilishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatishi: qimmatli qog'ozlar bozorida savdoni litsenziya asosida ish olib boradigan fond birjalari (birjalarning

fond bo'limlari) va investitsiya institutlari qonun xujjatlariga muvofiq tashkil etadilar.

Investitsiya institutlari qimmatli qog'ozlar bilan birjadan tashqarida savdo qilishni tashkil etuvchi bulinmalar tuzishga xaqli.

Qimmatli qog'ozlar bozorida savdoning asosiy printsiplariga rioya etilishi davlatning tartibga solishga oid chora tadbirlari bilan birga fond birjalari va qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilarining birlashmalari (ushyumalari) ishlab chikkan savdo qoidalarini uyGunlashtirish asosida ta'minlanadi.

Investorlar tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlar birja bozorlari va birjadan tashqari bozorlarda qayta sotilishi mumkin. Investorlar oldi-sotdilarni investitsiya institutlari orqali xam, mustakil xolda xam amalga oshirishlari mumkin. Egasi yozilgan qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisiga doir bitimlar tomonlarning uz xoxish irodalarini izxor etganliklarini qayd etish imkonini beradigan xujjat shaklida amalga oshiriladi. Egasi yozilmagan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisiga doir bitimlar tomonlarning uz xoxish irodalari izxor etilganliklarini qayd etish imkonini beradigan xujjat shaklida amalga oshiriladi, vositachisiz tuziladigan va tuzilgan paytda bajariladigan bitimlar bundan mustasno.

Davlat mol-mulkini boshqarishga vakil kilingan organ tomonidan aktsiyalar oldi-sotdisiga doir bitimlar birjadan tashqari bozorda mustakil suratda, investitsiya vositachilari ishtirokisiz O'zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozorida vositachilik. Qimmatli qog'ozlar bozorida vositachilikni investitsiya vositachilari amalga oshiradilar.

Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik va (yoki) dilerlik faoliyatini amalga oshiragtgan investitsiya instituti investitsiya vositachisi hisoblanadi. Topshiriq shartnomalari yoki vositachilik xaki asosida gxud bitimlar tuzish uchun berilgan ishonchnoma asosida ish olib borib, vakolatli shaxs yoki vositachi sifatida qimmatli qog'ozlar yuzasidan fukarolik-huquqiy bitimlarini amalga oshirish brokerlik faoliyati hisoblanadi.

Muayyan qimmatli qog'ozlarni sotib olish va (yoki) sotish narxlarini oshkora e'lon qilish xamda ushbu qimmatli qog'ozlarni e'lon kilingan narxlari bo'yicha sotib olish va (yoki) sotish majburiyatini olish yo'li bilan uz nomidan va uz hisobidan qimmatli qog'ozlarga doir oldi-sotdi bitimlarini tuzish dilerlik faoliyati hisoblanadi.

Maslahat berish borasidagi faoliyat. Qimmatli qog'ozlar bozorini va uni ishtirokchilarini tahlil etish va istikbolini aniqlash, moliyaviy vositalarni (moliyaviy majburiyatlarni) ekspertiza qilish, ishlab chiqish va tavsiya etish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish, qimmatli qog'ozlar chiqarish, ularni joylashtirish va muomalaga kiritish, mutaxassislarni qayta tayyorlash, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslar investitsiya siyosatini amalga oshirishlari. Xususiada maslahatlar berish sohasidagi xizmatlar maslahat berish borasidagi faoliyat deyiladi.

Qimmatli qog'ozlar borasida maslahat berish faoliyati bilan shug'ullanuvchi investitsiya instituti investitsiya maslahatchisi deb ataladi.

Yuridik va jismoniy shaxs investitsiya maslahatchisi bo'lishi mumkin.

Investitsiya maslahatchisi mijoz mustakil ravishda bir karorga kelishi uchun unga zarur axborotni beradi va muayyan qimmatli qog'ozlarni sotib olish yoki sotish bo'yicha tavsiyalar berishga xaqli emas.

Qimmatli qog'ozlar chiqaradigan, qimmatli qog'ozlarga mablag' soladigan, uz nomidan va uz hisobidan, jumladan qimmatli qog'ozlarni kotirovkalash hisobidan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisini amalga oshiradigan yuridik shaxs investitsiya kompaniyasidir. Investitsiya kompaniyalari uz resurslarini faqat muassislarning mablag'lari, shuningdek reinvestitsiya kilingan uz mablag'lari hisobidan tashkil etadilar va yuridik xamda jismoniy shaxslarga sotiladitan uz qimmatli qog'ozlarini emissiya kiladilar.

Reinvestitsiya bu - investitsiya jaragmlarida daromad sifatida olingan mablag'larni qaytadan qo'shimcha mablag' sifatida investitsiyaga yo'naltirishdir. Investitsiya kompaniyalari aholining omonatlari va mablag'lari hisobidan jalb etilgan resurslarini tashkil etish huquqiga ega emasdir.

O'zbekistonda aktsiyalarning birjaviy va nobirjaviy bozorlarda savdosi nisbati⁶

№	Yillar	Birjaviy bozor		Nobirjaviy bozor	
		Hajmi (mlrd. so'm)	ulushi %da	hajmi (mlrd. so'm)	ulushi %da
1	2007 yil	114,7	28,6	286,1	71,4
2	2008 yil	111,9	15,9	593,8	84,1
3	2009 yil	89,9	13,4	580,8	86,6
4	2010 yil	64,3	4,2	1477,3	95,8
5	2011 yil	213,1	14,2	1287,9	85,8
6	2012 yil	170,7	8,2	1922,8	91,8
7	2013 yil	93,2	9,5	884,2	90,5

Yuqoridagi 6-jadvalda O'zbekistonda aktsiyalarning birjaviy va nobirjaviy bozorlarda savdosi nisbati keltirilgan. Ushbu jadval ma'lumotlariga ko'ra 2007 yilda savdoda bo'lgan jami aktsiyalarning 114,7 mlrd. so'mlik qismi, ya'ni 28,6 %i birjaviy bozorlarda, 286,1 mlrd. so'mlik qismi, ya'ni 71,4%i nobirjaviy bozorlarda sotilgan. 2013 yilda esa savdoda bo'lgan jami aktsiyalarning 93,2 mlrd. so'mlik qismi, ya'ni 9,5 %i birjaviy bozorlarda, 884,2 mlrd. so'mlik qismi, ya'ni 90,5%i nobirjaviy bozorlarda sotilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, aktsiyalarning aksariyat qismi nobirjaviy bozorlarda sotilgan.

Investitsiya fondining faoliyati. Investorlarning pul mablag'larini ishga solish maqsadida aktsiyalar sotib oladigan va chiqaradigan xamda mablag'larni fond nomidan qimmatli qog'ozlarga, banklardagi hisob varakalarga va omonatlarga kuyadigan yuridik shaxs investitsiya fondidir. Investitsiya fondlarining mablag'larini bunday kuyish bilan bog'lik tavakkalchiligi, bu mablag'larning bozoridagi kadri uzgarishidan keladigan daromad va kuriladigan zarar to'la-tukis ushbu fond egalari (aktsiyadorlari) hisobiga o'tkaziladi va ular

⁶ TMI va TDIU hamkorligida 29.05.2014da tashkil qilingan ilmiy seminarda ma'ruza qilgan prof. Butikovning taqdimot materiallaridan olindi

tomonidan fond aktsiyalarining joriy narxlari uzgarishi hisobiga realizatsiya kilinadi. Banklar va sug'urta kompaniyalari investitsiya fondlari bo'la olmaydi.

Boshqaruvchi kompaniyaning faoliyati. Boshqa investitsiya institutlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning sohasida faoliyat ko'rsatadigan, shuningdek qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisini amalga oshiradigan investitsiya instituti boshqaruvchi kompaniya deb ataladi. Yuridik shaxsning egalik kilish uchun o'ziga berilgan va boshqa bir shaxsga tegishli bo'lgan, mazkur shaxs yoki bu shaxs kursatgan uchinchi shaxslar manfaatlarini kuzlab: qimmatli qog'ozlarni; qimmatli qog'ozlarni investitsiyalashga muljallangan pul mablag'larini; qimmatli qog'ozlarni boshqarish jaragnida olinadigan pul mablag'lari xamda qimmatli qog'ozlarni xak evaziga boshqarish vakolatini muayyan muddat davomida uz nomidan amalga oshirishi qimmatli qog'ozlarni boshqarish sohasidagi faoliyat hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlarni boshqarish faoliyatini amalga oshirish tartibi qonun xujjatlari va shartnomalari bilan belgilanadi.

Depozitar faoliyat. Qimmatli qog'ozlarni saqlash va (yoki) bu qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olib borish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish depozitar faoliyat deb hisoblanadi. Depozitar faoliyat bilan shug'ullanadigan investitsiya instituti depozitariy deb ataladi. faqat yuridik shaxsgina depozitariy bo'la oladi. Depozitariy qimmatli qog'ozlarni saqlash va (yoki) bu qimmatli qog'ozlarga ega bo'lgan huquqlarni hisobga olib borish sohasidagi xizmatlaridan foydalanuvchi shaxs deponent deb ataladi. Investorlar uz aktsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari saqlanishini ta'minlash maqsadida qimmatli qog'ozlarni: kog'oz sertifikatleri; kompyuterdagi elektron buxgalteriya yozuvlari shaklida saqlash va almashish huquqiga egalar. Deponentlarning qimmatli qog'ozlariga depozitariyning majburiyatlari bo'yicha undiruv karatilishi mumkin emas. Markaziy depozitariyning xizmatlar ko'lamı matritsasi mavjud.

Qimmatli qog'ozlar yuzasidan uzaro majburiyatlarni aniqlash va hisobga olish. O'zaro majburiyatlarni belgilash, aniqlash va hisobga olishga doir faoliyat kliring deb hisoblanib, bu faoliyat bitimga doir axborotni to'plash, solishtirish,

unga tuzatish kiritish xamda qimmatli qog'ozlarga doir fukaroviy huquqiy bitimlarni ijro etish uchun buxgalteriya xujjatlarini tayyorlash operatsiyalarini nazarda tutadi. Qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar bo'yicha hisob-kitob kliring operatsiyalarini amalga oshiruvchi investitsiya institutlari hisob-kitob kliring palatasi deb ataladi.

Qimmatli qog'ozlarga doir operatsiyalar yuzasidan hisob-kitob olib borilishi munosabati bilan kliringni amalga oshiruvchi tashkilotlar uzaro majburiyatlarni aniqlash chog'ida tayyorlab qo'yilgan qimmatli qog'ozlar, pul mablag'lari va buxgalteriya xujjatlarini ijroga kabul kilib olagtganlarida qimmatli qog'ozlar bozorining kaysi qatnashchisi uchun hisob-kitob ishlari amalga oshirilagtgan bo'lsa, shu qatnashchi bilan tuzgan uz shartnomalariga asoslanadilar.

Qimmatli qog'ozlar egalari reestrini yuritish sohasidagi faoliyat. Qimmatli qog'ozlar egalari reestrini yuritish tizimini tashkil etadigan va bu tizimga taalukli bo'lgan ma'lumotlarni to'plash, qayd etish, qayta ishlash, saqlash va takdim etish qimmatli qog'ozlar egalari reestrini yuritish sohasidagi faoliyat deb hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar egalari reestrini yuritish bo'yicha xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi investitsiya instituti qimmatli qog'ozlar egalari reestrini saqlovchi (reestr saqlovchi) deb ataladi.

Qimmatli qog'ozlar egalari reestri ro'yxatdan o'tkaziltan qimmatli qog'ozlar egalarining istalgan sanadagi xolat bo'yicha tuzilgan ro'yxati bo'lib, ularga qarashli egasi yozilgan qimmatli qog'ozlarning mikdori, nominal kiymati va toifasi ushbu ro'yxatda kursatiladi. Emitent yoki uning topshirig'i asosida reestr yuritish faoliyatini amalga oshiradigan investitsiya instituti reestr saqlovchi bo'lishi mumkin.

Agar qimmatli qog'ozlar egalarining soni 500 dan oshib ketsa, reestr saqlovchi reestr yuritishga ixtisoslashgan mustakil tashkilot bo'lishi kerak. Quyidagilar qimmatli qog'ozlar egalari reestrini saqlovchi bo'la olmaydilar:

- jismoniy shaxslar;

- shu aktsiyadorlik jamiyatining aktsiyadorlari bo'lgan yoki uni aktsiyalarini nazorat qiladigan yuridik shaxslar. Qimmatli qog'ozlar egalari reestrini yuritish bo'yicha faoliyat olib boruvchi yuridik shaxs emitentning qimmatli qog'ozlar egalari reestrini yuritish tizimida ro'yxatga olingan qimmatli qog'ozlari yuzasidan bitimlar tuzishga xaqli emas.

Qimmatli qog'ozlar egasining yoki u vakil kilingan shaxsning topshirig'i bilan va uning nomidan qimmatli qog'ozlar yuzasidan bitimlar tuzuvchi banklar, depozitariylar (investitsiya fondi aktsiyalaridan tashqari), investitsiya institutlari qimmatli qog'ozlarni nominal saqlovchilar bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'ozlarni nominal saqlovchi boshqa shaxsning topshirig'iga muvofiq uzi saklayotgan qimmatli qog'ozlar yuzasidan:

- ushbu shaxs mazkur qimmatli qog'ozlar bo'yicha o'ziga tegishli kerak bo'lgan xamma tulovlarni olishini ta'minlashga karatilgan xarakatlarning barchasini amalga oshirish;

- qimmatli qog'ozlar yuzasidan bitimlar va operatsiyalarni faqat o'ziga aktsiyalarni saqlab turish haqida topshiriq bergan shaxsning topshirig'iga muvofiq va u bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra amalga oshirish;

- boshqa shaxslarning topshirig'iga ko'ra o'zi saqlab turgan qimmatli qog'ozlar hisobini balansdan tashqarida alohida hisob varakalarda hisobga olib borishi va qimmatli qog'ozlarni saqlab turish haqida topshiriq bergan shaxslarning talablarini kondirish maqsadida ushbu hisob varakalarda doimo etarli miqdorda qimmatli qog'ozlarga ega bo'lishi kerak.

Qimmatli qog'ozlarni nominal saqlovchi qimmatli qog'ozlar reestrini saqlovchiga qimmatli qog'ozlarni saqlash bo'yicha topshiriq bergan shaxslar tug'risidagi ma'lumotlarni yilda kamida bir marta takdim etib, qimmatli qog'ozlar sonini va toifalari (turlari)ni ko'rsatishi shart. Qimmatli qog'ozlarni nominal saqlovchi uz mijozlarining topshirig'iga binoan saqlab turgan qimmatli qog'ozlar nominal saqlovchining kreditorlari foydasiga undirib olinishi mumkin emas.

Investitsiya maslahatchisi, investitsiya fondi va boshqaruvchi kompaniya faoliyatini amalga oshirish uni qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyatning boshqa turlari bilan qo'shib olib borishga yo'l ko'yilmaydi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining ayrim ishtirokchilari huquqlarini hisobga olishning joriy tizimi mavjud. Reestrni yuritish faoliyatini amalga oshirish uni qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatning boshqa turlari bilan (depozitar faoliyat turidan tashqari) qo'shib olib borishga yo'l ko'yilmaydi. Qimmatli qog'ozlar yuzasidan faoliyat turlarini qo'shib olib borish va operatsiyalar o'tkazish sohasidagi qo'shimcha cheklashlar davlat vakolat bergan organ tomonidan belgilanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining davlat boshqaruvi vakolatli organlari tomonidan:

- qimmatli qog'ozlar va emissiya prospektlarini chiqarishni ro'yxatga olish, emitentlarning ularda nazarda tutilgan shartlar va majburiyatlarga rioya kilishlari ustidan nazoratni amalga oshirish;

- qonunga muvofiq qimmatli qog'ozlar tug'risidagi axborot emitentlar va qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilari tomonidan ma'lum kilinishini ta'minlash;

- mutaxassislarni attestatsiyalash, investitsiya institutlari faoliyatini litsenziyalash va nazorat kilish;

- investorlar xamda qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa ishtirokchilari bergan shikoyatlarni kurib chiqish va qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari bajarishi majburiy bo'lgan xulosalar chiqarish, kursatmalar berish yo'li bilan amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasi xududida qimmatli qog'ozlar yuzasidan tuziladigan bitimlarni tartibga solish birjalardagi va birjadan tashqaridagi oldi-sotdi bitimlarga, shuningdek qimmatli qog'ozlarni sovg'a qilish, meros qilib olishga, ustav fondiga kiritishga hamda ularning mulklari o'zgarishiga olib keladigan boshqa xarakatlarni amalga oshirishga nisbatan qo'llaniladi.

Investitsiya institutlari bitimlarni faqat qonun xujjatlarida belgilab qo'yilgan shakldagi topshiriq shartnomalari yoki vositachilik xaklari asosida ularda ko'rsatilgan barcha zarur shartlarga aniq rioya qilgan xolda mijozlar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyat davlat vakolat bergan organ tomonidan beriladigan maxsus ruxsatnoma - litsenziya asosida amalga oshiriladi. Litsenziya bergan organ investitsiya institutlari faoliyatini nazorat kilib turadi va qonun xujjatlari buzilgan takdirda berilgan litsenziyani chiqarib olish tug'risida karor kabul qiladi.

Davlat tomonidan vakolat bergan organ qimmatli qog'ozlar bilan zarur darajada professional faoliyat kursatilishini ta'minlash maqsadida: jismoniy shaxslar (investitsiya institutlari va fond birjalarining xodimlari) qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisi malaka guvohnomasini olishlari uchun ular oldiga qo'yiladigan malaka talablarini; o'z mablag'lari etarli bo'lishining majburiy normativlarini va qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha tavakkalchilikni cheklovchi boshqa ko'rsatkichlarni belgilaydi. Banklar qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni investitsiya institutlari uchun qonunda belgilab qo'yilgan tartibda amalga oshiradilar.

Faoliyatning ta'qiqlangan turlari quyidagilardir:

- davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan xolda yoki qimmatli qog'ozlarga taaluqli axborotni oshkor etmasdan qimmatli qog'ozlar emissiyasini amalga oshirish;
- tegishli litsenziyasiz qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatni amalga oshirish;
- soxta bitimlar, talablarni uzaro hisobga olish, kiska muddatli sun'iy bitimlarni amalga oshirish orqali qimmatli qog'ozlar bozorida manipulyatsiya qilish;
- muhim axborotdan qonunga xilof ravishda foydalanish;
- ayrim qatnashchilarning mavkeida ustunlik yaratish maqsadida kandaydir belgilarga karab qimmatli qog'ozlar bozorini bulish;

- qimmatli qog'ozlar bozorida savdo kilishning qonun xujjatlarida belgilangan asosiy printsiplariga zid boshqa xatti xarakatlarni amalga oshirish.

Qimmatli qog'ozlar bozorining o'ta murakkabligi va uning tez o'zgaruvchanligi, ishtirokchilar sonining ko'pligi va xilma-xilligi, katta xajmlarda shartnomalar va amallarning bajarilishi, xar xil turdagi axborotlarning bajarilishi, xar xil turdagi axborotlarning mavjudligi va ularning almashinib turishi va boshqa omillarning kimmatli kkog'ozlar bozorida turli gayriqonuniy ishlarning yuz berishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bunday xol investorlarning manfaatlari va huquqlarini paymol kilishga, ularning fond bozoriga nisbatan ishonchlarini kamaytirish, pirovard natijada esa bozorning nufuzini pasaytirishi mumkin.

Shu sababli qimmatli qog'ozlar bozori davlat boshqaruvi vakolatli organlari tomonidan nazorat kilib turiladi va boshqariladi.

**O'zbekiston Respublikasida 1998-2013 yillarda qimmatli qog'ozlar bozori
professional ishtirokchilari tuzilmalari dinamikasi⁷**

№	Faoliyat turlari	01.07. 1998	01.01. 2000	01.01. 2005	01.01. 2008	01.01. 2012	01.01. 2014
1	Investitsion vositachilar	192	134	109	94	36	41
2	Investitsion kompaniya	47	22	12	12	-	-
3	Investitsion maslahatchi	26	29	26	23	20	31
4	Depozitariy	16	21	35	40	32	31
5	Reestrutuvchi	38	56	54	46	-	-
6	Xususiylashtiriladigan investitsion fondlar	85	61	8	2	2	-
7	Boshqaruv kompaniyalari	82	46	59	54	-	-
8	Investitsion fond	3	4	18	11	7	9
9	Qimmatli qog'ozlar naminal tutuvchilar	4	6	16	17	-	-
10	Hisob-kliring palatasi	1	2	1	2	2	2
11	Birjadan tashqari savdolari tashkil etuvchi	-	-	-	2	2	2
12	Investitsion aktivlarni ishonchli boshqaruvchilari	-	-	-	-	25	28
13	Transfer-agentlar	-	-	-	-	4	3
Jami		494	381	338	303	130	147

Yuqoridagi 4-jadvalda O'zbekiston Respublikasida 1998-2013 yillarda qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari tuzilmalari dinamikasi keltirilgan. Ushbu jadval ma'lumotlariga ko'ra investitsion vositachilar so'nggi yillarda soni sezilarli darajada kamaygan.

Ya'ni investitsion vositachilar 1998 yil 1 iyul holatiga 192 ta bo'lgan bo'lsa, 2014 yil 1 yanvar holatiga ko'rsa esa 41 tani tashkil etgan. Investitsion maslahatchilar esa 1998 yil 1 iyul holatiga 26 ta bo'lgan bo'lsa, 2014 yil 1 yanvar holatiga ko'rsa esa 31 tani tashkil etgan. investitsion fondlar 1998 yil 1 iyul holatiga 3 ta bo'lgan bo'lsa, 2014 yil 1 yanvar holatiga ko'rsa esa 9 tani tashkil etgan.

⁷ TMI va TDIU hamkorligida 29.05.2014da tashkil qilingan ilmiy seminarda ma'ruza qilgan prof. Butikovning taqdimot materiallaridan olindi

4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish sharoitida fond bozorini takomillashtirish yo'llari

Respublikamizda me'yoriy-huquqiy bazaning shakllanishi bilan birga qimmatli qog'ozlar bozori institutsional infratuzilmasi xam shakllandi. Xozirgi kunga kelib uning barcha asosiy institutlari faoliyat ko'rsatmoqda. Qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasining faol shakllanishiga karamasdan, xorijiy fond bozorida mustahkam urnini topa olgan bir kator institutlar deyarli mavjud emas.

Bu institutlar katoriga transfer-agentlik xizmatlarini ko'rsatuvchi, ya'ni moliyaviy institutlar va ularning mijozlari orasida xujjatlarni oldi-berdi xizmatlarini ko'rsatuvchi institutni misol keltirish mumkin. Transfer-agentlik tarmogini shakllantirish, investorga uning kaerda joylashishidan kat'iy nazar, birgina transfer-agentiga murojaat kilib chegaralanmagan investitsion institutlar xizmatidan foydalanish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, birja listingiga kirishga tayyorlaydigan va yordam beradigan «promouterlar» deb nomlanuvchi maxsus investitsion institutlar mavjud emas. Respublika fond bozorida sug'urta tashkilotlarining faoliyati deyarli sezilmaydi, ammo dunyoda sarmoyadorlar huquqini ximoya kilish maqsadida sug'urta mexanizmi keng qo'llaniladi. Ushbu mexanizm infratuzilmali xatarlarni maxsus kompaniyalar zimmasiga yuklash imkoniyatini beradi.

Bugungi kundagi asosiy amaliy vazifa ikkilamchi bozorni rivojlantirishdir. Zero uning rivojlanishi darajasiga karab umuman kimmatli kogozlar bozori tugrisida xulosa chikariladi. Kimmatli kogozlar bozorini davlat tomonidan boshkarish organlari, uning infratuzilmasi muassasalari, barcha darajadagi olimlar va amaliyotchilarning sa'y-xarakatlari fynan shu muammoni xal etishga yunaltirilishi lozim. Ikkilamchi bozorni rivojlantirish uchun kuyidagi ikki muammoni xal etishimiz lozim:

1. Kimmatli kogozlar va birinchi galda aktsiyalarning likvidligini sezilarli darajada oshirish.

2. Bu kimmatli kogoslar va ularning emitentlari tugrisidagi axborotning oshkor etilishi masalasi

1.Qimmatli qog'ozlar bozori real sektorga investitsiyalarni jalb kilish mexanizmiga aylanishi kerak.

2.Iqtisodiy o'sishni jadallashtirish uchun O'zbekistonning pul mablag'laridagi extiyojlarini salmoqli qismini koplaydigan uzoq muddatli xorijiy sarmoyalarni jalb kilish kerak. (Xitoy 90-yillarda 240 mlrd. AQSh doll.investitsini jalb qilgan).

3.MDX davlatlarining yagona fond bozorini yaratish.(yoki, kamida erkin savdo zonasi), «yagona pasport» (litsenziyalarni, shaxodatnomalarni va emissiyalarni uzaro tan olish), fond bozorining umumiy infratuzilmasi, bozorning savdo va boshqa tizimlarini birlashishi, Toshkent shaxrida ushbu zonaning moliyaviy aktivlari savdosining markazini shakllantirish (aks xolda, MDX davlatlarining qimmatli qog'ozlari Venada, Istambulda, Berlinda yoki boshqa davlatda mujassamlanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida davlatning fiskal jamgarmalari emas, balki korxonalar va axolining banklar va moliya tizimidagi, shu jumladan uning, davlat segmentlaridagi jamgarmalarini samarali tarzda investitsiyalarga aylantirish imkonini beruvchi qimmatli qog'ozlar bozorining xilma-xil vositalari xal kiluvchi rol uynashi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozorining faolligini ta'minlash uchun kuyidagilarni amalga oshirish zarur deb xisoblaymiz.

Qimmatli qog'ozlar bozorini (ayniksa, ikkilamchi bozorni) rivojlantirishning umumiqtisodiy samaralari kuyidagilardan iborat bo'lishi lozim: Moliya bozorlarining likvidlilik darajasini oshirish va tegishli moliya resurslaridan foydalanish samaradorligini yuksaltirish;

Moliya bozorlarida rakobatni kuchaytirish xamda «narxlar» ni foiz stavkalari, kurslarni barqarorlashtirish;

Investitsiyalarni tarmoklarga qayta taksimlovchi bozor mexanizmi samaradorligini oshirish;

Moliya bozorlarida davlat ishtiroki koidalari ilgariidek kattik markazlashtirilgan emas, balki ular bozor sharoitlariga moslashuvchan bo'lishi lozim.

Iqtisodiyotning ijtimoiy - iqtisodiy jixatdan muxim soxalari va ustivor tarmoklarini moliyalash uchun davlat mablaglarini ishga solishning sof bozor sharoitlariga mukobil yullarini investorlarga taklif qilish zarur.

Hozirgi davrda xissadorlik korxonalariga aylantirilgan korxonalarning aktsiyalari sotiladigan boshlangich bozor tashkil topdi. Uning faoliyatini tartibga solib turish tamoyillari O'zbekiston Respublikasi qonunlarida mustaxkamlab kuyilgan. Unda kuplab investitsiya institutlari, brokerlik idoralari, investitsiya kompaniyalari va fondlari faoliyat kursatmokda. Bozor ishida tijorat banklari xam katnasha boshladi.

Fond birjasida yuzdan ortik brokerlik idoralari ishlab turibdi. Shuning uchdan biri respublika viloyatlaridadir. Birok qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlardan xali to'la foydalanilmayapti. Masalan, oldi-sotdi operatsiyalarida bir milliard sumlikdan ziyod aktsiyalar kuyiladi, ammo 80-90 million sumlik bitim tuziladi, kolgan aktsiyalar esa, xaridor ularning narxi baland deb xisoblagani bois sotilmay koladi. Vaxolanki, savdoga kuyilgan aktsiyalarning narxi talab va taklifga boglik ravishda tartibga solib turilishi lozim.

"Bizningcha, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, chukurlashtirish va kenggaytirish, uni avj oldirib yuborish yulidagi tusiklarni bartaraf etish uchun davlat boshqaruv organi makomiga ega bulgan qimmatli qog'ozlar va fond birjalar buyicha davlat komissiyasi bilan birgalikda nodavlat tuzilmalari faoliyatini xolisona tekshiruvdan utkazib turadigan Auditorlik komissiyasi tuzish zarur deb xisoblaymiz. Bunday komissiya fond bozori rivojlangan kupgina mamlakatlarda mavjud. Mazkur komissiya qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish va rivojlantirish, fond bozorini davlat tomonidan tartibga solish

buyicha tavsiyalar ishlab chiqish bilan boglik barcha masalalar xamda shu soxadagi qonunchilikni takomillashtirishga doir takliflar tayyorlashni xal qilish lozim. Bu esa uz vaktida qimmatli qog'ozlar bozoridagi barcha uzgarishlarga tez va anik munosabatda bo'lish, uni yanada rivojlantirishga doir qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida yashayotgan xar bir davlat qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirmasdan olga borolmaydi.

Qimmatli qog'ozlar bozori allakachon umumjaxon iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismiga aylanib ulgurdi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ushbu bozordan, bir tomondan davlat korxona va tashkilotlar, axoli uzlari uchun zarur bulgan mablagni jalb kilsalar, ikkinchi tomondan, korxona, tashkilot va axoli uzlarining vaktincha bush turgan pul mablaglarini qimmatbaxo qog'ozlar sotib olishga yunaltirib foyda ko'radilar. Shu tajribadan kelib chiksak, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish tizimini xayotga tatbik etish mamlakatimiz ijtimoiy va iqtisodiy tarakkiyotidan ortda qolmaslik uchun, bizda xam qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish zarur. Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish uchun:

xususiylashtirish natijasida tashkil topgan xissadorlik jamiyatlarining moliyaviy axvolini yaxshilash, ular chiqargan aktsiyalarni sarmoyadorlar orasida keng sotilishini ta'minlash uchun xususiylashtirish jarayonini, undan tushayotgan mablaglarning ishlatilishi xamda aktsiyalarni sotish mexanizmini takomillashtirish lozim;

«Toshkent» fond birjasi faoliyatini nafakat aktsiyalarining oldi-sotdisini tashkil qilishga, balki birjada uz aktsiyalarini sotayotgan korxonalarning moliyaviy axvolini nazorat qilish, u xakda sarmoyadorlarga axborot va ma'lumot berib turishga xam yunaltirish;

-xususiilashtirish natijasida tashkil topgan xissadorlik jamiyatlari aktsiyalarini birjadan tashkari bozorini xam tashkil etish;

-Birjadan tashkari bozor katnashchilari faoliyatini muvofiklashtirish, tartibga solish, nazorat qilish, tegishli yordam ko'rsatish, xuquq va manfaatlarini

ximoya qilish maqsadida uzini-uzi boshqarish birlashmalari, assotsiatsiyalarini tuzish.

Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun qimmatli qog'ozlar chiqaruvchi va sarmoyadorlarga tegishli xizmatlar kursatuvchi tashkilotlarning infrastrukturasi rivojlantirish zarur. Buning uchun tegishli, xususan, auditorlik, mulkni baxolash, reyting aniklash, taxlil qilish, konsultatsiya xizmati ko'rsatish, trust operatsiyalarini bajarish va shunga o'xshash faoliyatlarni bajarish uchun qonuniy va me'yoriy xujjatlar qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishga zamin yaratadi. Mamlakatimizda ishlab chiqarish jarayonlarining rivojlanishi qimmatli qog'ozlar bozoriga bo'lgan munosabatlarning qayta ko'rib chiqilishini talab qilayotgan bugungi kunda, ushbu jarayonning keskinligini oshirmoqda. Chunki, aynan qimmatli qog'ozlar bozori ko'p jihatdan qiymatning qaytish harakati samaradorligini oshirish, mulkchilik shaklining o'zgarishi, uni xususiy egalikka topshirish muammolarini echishning kaliti hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy vazifasi faqat davlat mulkini xususiy sektorda taqsimlashdan va shuning natijasida mulkning muayyan bir mulkdor tomonidan o'zlashtirilishidan iborat emas. Bu asosan xususiylashtirishning birinchi bosqichida amalga oshiriladi. Uning asosiy vazifasi sarmoyadorlarning pul mablag'larini bir joyga jamlab, ularni turfa investitsiya maqsadlarida ishlatishdan, ishlab chiqarishga yo'naltirishdan iborat.

O'zbekistonning jahon xo'jalik tizimiga bog'langanligi dunyodagi moliyaviy markazlar bilan aloqalarning kengaytirilayotganligini xisobga olib, mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish ob'ektiv zaruriyatga aylandi.

Jumladan, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori ishlab chiqarishni hamda investorlarni barqaror moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, iqtisodiyotni erkinlashtirishning iqtisodiy vositalaridan hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida O'zbekistonning ko'pgina aksiyadorlik jamiyatlari davlat korxonalari negizida tashkil etilgan bo'lib, o'z moddiy bazasiga, asosiy va aylanma kapitallariga ega.

Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak agar aksiyalashtirish jarayonida korxonani boshqarish, uning ishlab chiqarishga ta'sir qilishi ko'zda tutilib, qimmatli kog'ozlarni yirik to'plamlari bilan savdo qilish avj olsa, biz qimmatli kog'ozlarning to'la qonli va serharakat bozorini yarata olmaymiz. Bozor ko'p miqdordagi sarmoyadorlarning mablag'larini yig'ib, uni turli xil qo'yilmalar uchun taqsimlashi lozim. Bu bozorning hajmdorligiga va xilma-xilligiga, ya'ni muomaladagi qimmatli qog'ozlarning mumkin qadar sarmoyadorlar o'rtasida tarqatilishiga bog'liq.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ushbu bozordan, bir tomondan davlat korxona va tashkilotlar, aholi o'zlari uchun zarur bo'lgan mablag'ni jalb qilsalar, ikkinchi tomondan, korxona, tashkilot va aholi o'zlarining vaktincha bo'sh turgan pul mablag'larini qimmatbaxo qog'ozlar sotib olishga yo'naltirib foyda ko'radilar.

Aynan, iqtisodiy islohatlar natijasi o'laroq, davlatga qarashli mol-mulkni uning ixtiyoridan chiqarilishi va turli mulk shaklidagi xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarni bozor qonuniyatlariga muvofiq tashkil etilishi har xil tavakkalchiliklarni yuzaga kelishi uchun imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda birjada aksiyalar savdosi oddiy auksion asosida amalga oshirilmoqda. Xolbuki, ikkilamchi bozorda savdo qilishning asosiy qoidasi ikki yoqlama auksion deb ataladi. Bunda sotuvchilar bilan xaridorlarning o'zaro raqobatlashayotgan muqobil buyurtmalardagi shartlar mos kelganida bitim tuziladi.

Ushbu tizim brokerlik idoralari o'rtasida kafotlangan hisob-kitoblarni ta'minlangan holda savdo sessiyasi mobaynida aksiyalarni olish-sotish bo'yicha qayta-qayta bitimlarni tuzishni taqozo etadi. Buning uchun yangi texnologiya savdolar tizimini hamda savdolarini ikkiyoqlama auksion usulda olib borib, bir

vaqtning o'zida pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlarni bir mijozdan ikkinchisiga o'tkazish imkonini beradigan elektron dastur yaratish zarur.

Shu tajribadan kelib chiqsak, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish tizimini xayotga tatbik etish mamlakatimiz ijtimoiy va iqtisodiy tarakkiyotdan ortda qolmaslik uchun, bizda ham ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish zarur.

Bizning amaliyotda, qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy tarkibiy qismi sifatida ikkilamchi bozor mexanizmi halqaro andozalar tizimiga mos emasligi seziladi.

Respublikamizda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi ikkita asosiy muammoning hal etilishiga bevosita bog'liqdir:

-Birinchi muammo, qimmatli qog'ozlar bozorida aktsiyalarning likvidligini sezilarli darajada oshirish zaruriyatga aylandi. Xuddi shu xususiyat tufayli, fond birjalarida aynan bir emitentning qimmatli qog'ozlari bo'yicha katta miqdordagi bitimlar tuzilishi mumkin.

-Ikkinchi asosiy muammo-bu qimmatli qog'ozlar va ularning emitentlari to'g'risidagi axborotning oshkor etilmasligi masalasi. Bugungi kunda-bu fond bozoridagi murakkab uchastkalardan biridir.

Bugungi kunda asosiy e'tiborni aholi va muassasaviy sarmoyadorlarni aktsiyalari sotuvga qo'yiladigan aktsiyadorlik jamiyatlari, ular joriy faoliyatining natijalari va rivojlanish istiqbollari haqidagi axborotga ega bo'lishlariga e'tiborni qaratishlari lozim.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, milliy korxonalar faoliyatida kapitallashtirish darajasining pastligi, boshqarishdagi samarali usullarning yo'qligi, mamlakat miqyosidagi ommaviy nashriyotlarda aktsiyalarning bozordagi qiymatini shakllantirish mexanizmlarining etarlicha yoritilmasligi, ushbu yo'nalish bo'yicha maxsus kursatmalar, parametrlar, modellar, statistik ma'lumotlar, iqtisodiy tahlil andozalarini tartibga solish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi iqtisodiyotni diversifikatsiyalash hamda modernizatsiyalash sharoitida ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish uchun etarlicha ishchan mexanizm yaratilgan. Ayni paytda, mamlakat milliy fond bozorining yil sayin rivojlanayotganligi jumladan, rivojlangan moliya bozorlari tajribalari keng o'rganilib, amaliyotda tadbiq etilayotganligi aktsiyalar ikkilamchi bozorining rivojlanishiga zamin yaratadi.

XULOSA

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, uning yuqori suratlarda rivojlanishini ta'minlash asosiy va ustivor tadbirlardan biri bo'lib, u bir necha dolzarb yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Xususan, iqtisodiyot sur'atlarining o'sishini barqarorlashtirish va bevosita mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan xususiy mulkchilik tarmog'ini mustahkamlash, tadbirkorlik sub'ektlarining xo'jalik yuritishi uchun qulay moliyaviy sharoit yaratish, aholining real daromadini oshirish kabi omillardan keng foydalanishga har tomonlama erkinlik berilmoqda. Bu borada moliya bozori vositasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish omili alohida ahamiyat kasb etadi.

Bozor munosabatlariga o'tishning bugungi bosqichi iqtisodiyotimizning ochiqligi chet el investitsiyalarini jalb qilishning ortib borishi xususiylashtirish hamda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonlarining kuchayib borishi bilan belgilanadi. Shu qatori moliyaviy tizimning rivojlanishi uchun ham shart-sharoitlar yaratilmoqda, chunki rivojlangan moliyaviy tizimsiz iqtisodiy tizim muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata olmaydi. Shuning asnosida quyidagi xulosalarni berishni lozim deb topdik.

Birinchidan, banklarning fond bozoridagi faoliyatini faollashtirish uchun ularning kapitalini qayta tarkiblash, ustav fondlaridagi davlat ulushini xususiy

investorlarga sotish, banklarning investorlar sifatidagi faoliyatini yanada erkinlashtirish lozim.

Ikkinchidan, bank obligatsiyalar emissiyasi orqali aktsiyadorlik sarmoyasi bilan birgalikda bankning qarz sarmoyasini shakllantiradi. Sarmoyaning oshishi xususiy mablag'lar o'sishiga, bank yalpi sarmoyasida ularning solishtirma ulushi ortishiga olib keladi, bu o'z navbatida, uning barqarorligi, ishonchliligi mustahkamlanishiga hamda moliyaviy ko'rsatgichlarning yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, tijorat banklari obligatsiyalar chiqarish orqali yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini to'plashi, ularni iqtisodiyotning ustivor sohalariga investitsiyalab, fond bozorining rivojlanishiga zamin yaratadi-buning natijasida quyidagi iqtisodiy samara olinadi:

- * soliqqa tortiladigan bazaning kamayishini belgilaydi. Obligatsiyalar bo'yicha to'lanadigan foizlar "muomala xarajatlari"ga kiritiladi va bankning soliqqa tortiladigan bazasini kamaytiradi;

- * obligatsiya chiqarishda aktsiya emisiyasiga nisbatan muayyan afzalliklarga ega. Aktsiyada ulush munosabatlarini ifodalasa, obligatsiyada esa qarz munosabatlarini ifodalashi hamda obligatsiyalarni sotishda emitent bankdan maxsus jamg'arma hisobraqami ochish talab etilmaydi, bu o'z navbatida, sotishdan tushgan mablag'lardan bank faliyatida foydalanish imkoniyatini yaratadi;

- * tijorat banklari davlat obligatsiyalarni joylashtirishda bevosita professional dilerlik faoliyatida ham etakchi tashkilot bo'lib, banklar obligatsiyalar chiqarish orqali majburiy zahiralashdan holi hisoblanadi, ularni chiqarish vaqtida jalb etilgan mablag' bo'yicha majburiy zahira yaratish talab etilmaydi, bu jarayon bankda mavjud moliyaviy resurslarining ko'payishiga omil bo'lib xizmat qiladi

Yakuniy xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, mamlakatimizda moliya bozori iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini doimiy aktiv moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashga hamda jamiyat rivojiga munosib hissa qo'shmoqda. Shu bois,

biz tomondan berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilsa, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni yanada samarali tashkil etishga ijobiy turtki bo'lar edi. Bu o'z navbatida, respublikada moliya bozorining rivojlanishiga, shuningdek mamlakat tijorat banklarining moliya bozori orqali xalqaro sarmoya bozorlariga uyg'unlashuviga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2010 y.
2. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi.-T.: Adolat, 1996.-528 s.
3. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni 24.12.1998 y. №719- G.
4. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni 30.04.1998 y. №609- I.
5. O'zbekiston Respublikasining "Birjalar va birja faoliyati to'g'risida"gi qonuni 02.07.1992 y. №625-XP, yangi tahrirdagisi 29.08.2001 y.
6. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonuni, 22.07.2008 y.
7. O'zbekiston Respublikasining "Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning hukuqlarini ximoyalash to'grisida"gi qonuni 26.04.1996 y., №223-1, yangi taxrirdagisi 27.09.2008 y. №190 (4569).
8. 2010 yil 26 noyabrdagi №-1438-sonli "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tiziminn yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarori;
9. 2010 yil 15 dekabrdagi №-1442-sonli "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Karori;
- 10.2010 yil 29 dekabrdagi №PQ-1455-sonli "O'zbekiston Respublikasi 2011 yilgi investitsiya dasturi to'g'risida"gi Qarori;
- 11.2010 yil 24 dekabrdagi №1449-sonli "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi' Qarori.;
12. 2010 yil 18 noyabrlagi №PF-4053-sonli "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
- 13.2008 yil 28 noyabrdagi №-PF-4058-sonli "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-kuvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" Farmoni.

- 14.Karimov I.A. Osnovnie printsipi obshchestvenno-politicheskogo i ekonomicheskogo razvitiya Uzbekistana.- Tashkent:Uzbekistan, 1996.- 37 s.
- 15.Karimov I.A. Uzbekistan na poroge XXI veka: ugrozi bezopasnosti, usloviya i garantii progressa,- M.: Izd.dom Drofa, 1997.-209 s.
- 16.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.// Xadq so’zi, 2005 yil 19 yanvar.
- 17.Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to’g’risida- Toshkent: Uzbekistan, 2005.-252 b.
- 18.Karimov I.A. Erishilgai yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil xarakzt kilishimiz lozim.// Xalk suzi, 2006 yil 1 1 fevral.
- 19.Karimov I.A. Yangnlanish va barkaror taraqqiyot yo’lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish — asosiy va.zifamizdir.// Xa.chq so’zi, 2007 yil 13 fevral.
- 20.Karimov I.A. .Dalneyshaya modernizatsiya i obnovlenie strani - trebovanie vremeni.// (Narodnoe slovo, 14.02.2009 g).
- 21.Karimov I.A. O’axon moliyaviy-iktisodiy inkirozi, Uzbekistan sharoitida uni bartarif etishning yo’llari va choralari.-T.: Uzbekistan, 2009.-56 b.
- 22.Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi”. 2008 yilda mamalakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturlarning eng muhim ustivor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi. “Xalq so’zi” 2009 yil 14 fevral
- 23.I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz—vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” I.A.Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. 2010 yil 29 yanvar
- 24.I.A.Karimov. Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish” I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. – T.: O’zbekiston. 2013. – 64 b.
- 25.Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod vatan qolsin» Toshkent, «O’zbekiston», 1996.
- 26.Karimov.I.A “O’zbekiston buyuk kelajak sari ”.- Toshkent:O’zbekiston,1998 yil
- 27.O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi" NMIU. – 2013

28. Bekmurodov A.Sh., Gafurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustivor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. . T.: "TDIU", 2007. 120 b.
29. Barinov E.A., Xmiz O.V. Rinki: valyutnie i tsennix bumag. – M.: Ekzamen, 2001. – 608 s.
30. Butikov I.L. «Qimmatli qog'ozlar bozovari». –T.: Konsauditinform, 2001, - 472.
31. Berzon N.I. i dr. Fondoviy rinok: Uchebnoe posobie dlya vuzov ekonomicheskogo profilya. – 2-e izd. – M.: Vita-Press, 1999. – 400 s.
32. Vaxobov A.V., O'umaev N.X., Burxonov U.A. Xalkaro moliya munosabatlari.-T.: Sharq, 2003.-400 b
33. Rinok tsennix bumag: Uchebnik/Pod red. V.A. Galanova, A.I. Basova. – M.: Finansi i statistika, 2000.
34. Tsennie bumagi: Uchebnik/Pod red. V.I. Kolesnikova, V.S. Torkanovskogo. 2-e izd., pererab. i dop. – M.: Finansi i statistika, 2000. – 448 s.
35. Rubtsov B.B. Mirovie rinki tsennix bumag.-M.: Ekzamen, 2002.-447 s.
36. Xominich I.P. Finansovaya globalizatsiya //Bankovskie usluga, №8, 2002. – s.2-13.
37. Ernando De Soto. Sekret kapitala. Pochemu kapitalizm torjestvuet na Zapade i terpit porajenie vo vsem ostalnom mire./Per. s angl.- M.: ZAO Olimp-Biznes, 2001.-272 s.
38. Mirkin Ya.M. Rinok tsennix bumag Rossii: vozdeystvie fundamentalnix faktorov, prognoz i politika razvitiya.-M.: Alpina Pabliher, 2002.-583 s.
39. Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investitsii: Per. s angl. - M.: INFRA-M, 1999. - XII, 1028 s.
40. Shoxa'zamiy Sh.Sh. Rinki: finansovie i tsennix bumag. – T.: TFI, 2003. – 196 s.
41. Shoxa'zamiy Sh.Sh. Osnovi teorii i praktika ekonomiki privatizatsii. – T.: Ibn Sino, 2004. – 852 s.
42. Shoxa'zamiy Sh.Sh. Birjevaya deyatelnost. Uchebnik.-T.: Ilm ziyo, 2006.- 288 s.
43. Shoxa'zamiy Sh.Sh. Finansoviy rinok i tsennie bumagi. Kniga I. Uchebnik.-T.: Iqtisod-moliya, 2005.-728 s.
44. Shoxa'zamiy Sh.Sh. Finansoviy rinok i tsennie bumagi. Kniga II. Uchebnik.-T.: Iqtisod-moliya, 2005.-849 s.
45. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining yillik ma'lumotlari.
46. O'zbekiston Respublikasi Statistika Vazirligining yillik axborotnomalari

- 47.O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2007 yil. -T.:20084.-№5.
48.O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2008 yil. -T.:2009.-№10.
49.O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2009 yil. -T.:2010.-№12.
50.O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2010 yil. -T.:2011.-№9.
51.O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2011 yil. -T.:2012.-№6.
52.O'zbekiston statistik axborotnomasi. - Toshkent, 2008 - 2012.

Internet saytlari.

- 53.<http://www.press-service.uz>- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti axborot markazi sayti
54.<http://www.gov.uz>- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti
55.<http://www.soliq.uz>- O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti
56.<http://www.mf.uz>- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti
57.<http://www.nalog.ru>- Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti
58.<http://www.stat.uz>- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti
59.<http://www.lex.uz>- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi rasmiy sayti.
60.<http://www.tfi.uz>- Toshkent moliya instituti sayti.